

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XABIBILLAYEV BAXODIR ASATILLA O‘G‘LI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
(1991–2016-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

UDK:94(575.123)“1991/2016”: 334.72(575.123)(091)

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
исторических наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Historical Sciences**

Xabibillayev Baxodir Asatilla o‘g‘li

Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
(1991–2016-yillar) 3

Хабибиллаев Баходир Асатилла угли

Малый бизнес и частное предпринимательство в Наманганской области в
годы независимости (1991–2016 годы) 27

Khabibillaev Bakhodir Asatilla ugli

Small business and private entrepreneurship in Namangan region during the years
of independence (1991–2016) 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XABIBILLAYEV BAXODIR ASATILLA O‘G‘LI

**MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK (1991–2016-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Tar1247 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fardu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimov Soibjon Abdurazzaqovich
tarix fanlari doktori, professor

Mirzaxolov Sardor Jamoliddinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD 03/2025 27 12 Tar.10.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "21" 02 soat 11:00 da majlisda bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shaxri, Murabbiylar ko'chasi, Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali) (Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873)244-44-93, e-mail: fardu_info@mail.uz, Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (696) raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shaxri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy ARM binosi Tel: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "07" 02 kuni tarqatiladi.
(2026-yil "7" 02 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi)



B.A.Usmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
koti, t.f.f.d., professor

A.B.Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
koti, t.f.f.d.

M.G.Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashtirish jarayonlari sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish hamda uning boshqaruv faoliyati mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Aynan kichik biznes va tadbirkorlik o‘zining harakatchanligi, kam kapital mablag‘larini jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab iste‘molchilarga taqdim etish imkoniyatlarini yaratish zaruriyatga aylanib bormoqda. Shu o‘rinda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi muammolarini o‘rganish, tizimli hal etish, imkoniyatlarini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning qator yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash kabi masalalar chuqur o‘rganilmoqda. Jumladan, AQShning Garvard universitetini “Harvard Center for Entrepreneurship and Innovation” va Stanford universitetini “Stanford Graduate School of Business”, Buyuk Britaniyaning Kambrij universitetini “Centre for Entrepreneurial Learning” ilmiy markazlari, shuningdek, Singapur Milliy universitetining “NUS Enterprise” kichik biznesni raqamli iqtisodiyot va startap ekotizimi, Rossiya Fanlar akademiyasi, Koreya ayollar rivojlanish institutlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda yetakchilik qiladi. Bugungi kunda biznes va tadbirkorlikni intensiv rivojlantirish, takomillashtirib borish ko‘plab davlatlar siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilishi sohani keng tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shu boisdan, xalqaro raqobat, transformatsiyalashuv jarayonida tadbirkorlik subyektlarini himoyalash, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir ilmiy bilimlarni yanada chuqur o‘rganish, tarixiy davrlar, mintaqa va muammolar kesimida tadqiq etish muhim o‘rin tutmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid qonun hujjatlari qabul qilinib, amaldagi normativ-huquqiy mexanizm takomillashtirildi. Ayniqsa, hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, xususiy mulkning qonuniy hamda amaliy jihatdan ustuvor rolini ta‘minlash, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta‘minlashdir. Biznes bilan shug‘ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo‘lishi shart. Odamlar biznes bilan shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo‘lsa, mamlakat ham boy bo‘ladi”¹. Shuning uchun ham sohani keng tadqiq etish dolzarblilik kasb etadi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 15.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyul PF–5490-son “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 7-iyun PQ–3777-son “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi”gi, 2019-yil 7-mart PQ–4231-son “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, amaliy hayotga tatbiq etish jarayonida ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ta’limiy rivojlanishi uchun innovatsion g‘oyalar va ularni amalga oshirish yo‘llari tizimini shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar aks etgan adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etishda ikkita guruhga: mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yaratilgan adabiyotlar hamda xorijlik mualliflar asarlariga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlarning o‘zini bir necha guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. Bu yillarda mavzuga oid bo‘lgan ishlarni tarixchilardan² tashqari, iqtisodchilar³, faylasuflar⁴ ham bir qator tadqiqot ishlarini olib bordilar.

² Турсунов Ж.Н. История экономического и социального развития городов Узбекистана (на примере городов Байсун, Шаргун, Шурчи). 1971-1990. Автореф.дисс.кан.ист.наук. – Ташкент, 1995. – 52 с.; Ўзбекистон тарихи. Р.ХМуртазаева масъул муҳаррирлигида / Олий ўқув юртлари номутахассислик йўналиши талабалари учун дарслик. – Тошкент, 2003. – 674 б.; Хайдаров Д.О. Ўзбекистонда ресурс шахарларининг шаклланиш тарихидан //“Имом Бухорий сабоқлари” журнали. – Самарқанд, 2016. – №4. – Б. 52-54; Рахимов М.А., Рахматуллаев Ш.М., Турсунова Р.Ю., Назаров Р.Р. Очерки новейшей истории Узбекистана. 2-е издание (исправленное и дополненное). – Ташкент, 2016. – 376 с.; Хайдаров Д.О. Янги иқтисодий инфратузилмаларнинг ташкил топиши. Ўзбекистонда замонавий шаҳар маданияти (1991–2016 йиллар). – Тошкент: Янги нашр, 2017. – 184 б.; Рахматуллаев Ш. Фарғона водийси шаҳарларида иқтисодий трансформация жараёнлари (1991-1996 йиллар). – Тошкент, 2017. – 196 б.; Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik ривожланиш тарихининг айрим жиҳатлари хусусида // “Ўтмишга назар. – Тошкент, 2019. – №12. – Б. 74-90; Балтабаева М.М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тadbirkorlikни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2017 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 2019. – 56 б.; Обломуродов Н, Толипов Ф. Ўзбекистон мустақиллигининг дастлабки йилларида мулкчилик ва тadbirkorlikнинг аҳволи: ютуқлар, муаммолар ва ечимлар. // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” Тошкент. 2019. – №2-3. – Б. 20-26; Хайдаров Д. XX аср охири – XXI аср бошларида Ўзбекистонда саноат шаҳарларининг ривожланиш тарихи (Зарафшон иқтисодий райони мисолида). Тарих.фан.бўйича фалс.докт.(PhD) дисс. автореф. – Самарқанд 2021. – 52 б.; Марозиқов А. Фарғона вилоятида тadbirkorlikнинг шаклланиши ва ривожланиши (1991–2020 йй). Тарих.фан.бўйича фалс.докт. (PhD) дисс. ... – Тошкент. 2021. – 145 б.; Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ривожланиш тарихи (1991-2021 йй). Тарих фан.докт. дисс. – Тошкент, 2022. – 236 б.

³ Ахмедов Т.М. Управление территориальной организацией производительных сил и комплексным развитием регионов Узбекистана: Автореф. дисс. ...докт. экон. наук. – Ташкент, 1992. – 40 с.; Шодмонов Ш.Ш., Алимов Р.Х., Жўраев Т.Т. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: Молия, 2002. – 416 с.; Абдусаломов М. Производительные силы и совершенствование экономических связей Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1990. – 141 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Региональные особенности развития агропромышленного производства в условиях либерализации экономики. Автореф. дисс. ...докт. экон. наук. – Ташкент, 2003. – 38 с.; Муфтайдинов Қ. Бозор иқтисодиёти шароитида тadbirkorlikни ривожлантириш муаммолари. Иқт.фан.док. илмий

Tarixchilarning tadqiqotlarida Farg‘ona viloyati ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, hududda tadbirkorlikning yo‘lga qo‘yilishi, milliy hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikni rivojlanishi⁵, bozor munosabatlariga o‘tish bilan bog‘liq islohotlarning ilk davrida Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlari sanoat korxonalarini⁶, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikning ahvoli, respublika hududlari va viloyatlarining o‘ziga xos ijtimoiy demografik holati, tabiiy-iqlim sharoiti va geografik joylashuvidan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlik, ayniqsa an‘anaviy hunarmandchilik va kasanachilik rivojlanishining etnohududiy xususiyatlarini o‘rganish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘siq bo‘lib kelgan asosiy muammolar, ularning asosiy sabablari va omillarini aniqlashtirish hamda sohalar va viloyatlar kesimida tahlil etish kabi masalalar tahlil etilgan⁷. Tadqiqotchi G‘.Xaydarov vodiy viloyatlarining investitsion salohiyatini o‘rgangan bo‘lsa, A.Maroziqov Farg‘ona viloyatida tadbirkorlik faoliyatini tadqiq qilgan. Farg‘ona vodiysida yoshlar tadbirkorligi masalasida ilmiy izlanish olib borgan S.Mirzaxalovning ishlari soha rivojiga katta hissa qo‘shdi⁸.

O‘zbekiston va uning hududlarida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlar va ayrim mintaqaviy xususiyatlari⁹, iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, mohiyati, uni rivojlantirish xususiyatlari, mintaqalarning tabiiy resurs salohiyati, hududlarida ishlab chiqarish majmualarining rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, ishlab chiqarish

даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2004. – 46 б.; Солиев А.С. ва бошқалар Минтақавий иқтисодиёт. – Тошкент: Университет, 2004. – 226 б.; Кулматов А.Ўзбекистонда кичик тadbirkorlik фаолиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари. Иқт.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация– Тошкент, 2004. – 141 б.; Қаюмов А., Назарова Х., Эгамбердиев Ф.Т. Минтақавий иқтисод. – Тошкент: ЎЗМУ, 2004. – 183 б.; Содиков А. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Тошкент: Иқтисод–молия, 2005. – 280 с.; Муродова Н.К. Кичик бизнес субъектларининг тadbirkorlik фаоллигини оширишнинг асосий йўналишлари. Иқт.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2008. – 23 б.; Алматова Д.С. Худудий тadbirkorlik ривож ва инвестицион фаолликни таъминлаш истикболлари (Сирдарё вилояти мисолида) Иқт.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Абдуллаев О. Минтақалар ва мамлакатлар иқтисодиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 284 б.; Турабоева Н. Хусусий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари. Иқт.фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – 25 б.

⁴ Аннаева Н.Р. Аёллар тadbirkorлигининг генезиси, назарияси ва амалиёти. Фалсафа доктори (PhD) илмий дараж. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 51 б.

⁵ Марозиқов А. Фарғона вилоятида тadbirkorlikнинг шаклланиши ва ривожланиши (1991 -2020 йй). Тарих.фан.бўйича фалс.докт. (PhD) дисс. ... – Тошкент, 2021. – 145 б.

⁶ Хайдаров Д. XX аср охири – XXI аср бошларида Ўзбекистонда sanoat шаҳарларининг ривожланиш тарихи (Зарафшон иқтисодий райони мисолида). Тарих.фан.бўйича фал.докт.(PhD) дисс. ... – Самарқанд, 2021. – 58 б.

⁷ Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ривожланиш тарихи (1991-2021 йй). Тарих.фан.докт. илм.дараж. олиш учун тақ.эт.дисс. ... – Тошкент, 2022. – 236 б.

⁸ Mirzaxalov S. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligining muammo va yechimlari (Farg‘ona vodiysi viloyatlari viloyatlari misolida 1991-2021 yillar). Tarix fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Farg‘ona, 2023. – 138 b.

⁹ Муродова Н.К. Кичик бизнес субъектларининг тadbirkorlik фаоллигини оширишнинг асосий йўналишлари. Иқт.фан.ном. илмий даража дисс...автореферати. – Тошкент, 2008. – 54 б.; Турабоева Н. Хусусий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари. Иқт.фан.ном. илмий даража. дисс.... автореферати. – Тошкент, 2010. – 50 б.

⁹ Солиев А.С. ва бошқалар Минтақавий иқтисодиёт. – Тошкент: Университет, 2004. – 304 б.; Абдуллаев О. Минтақалар ва мамлакатлар иқтисодиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 239 б.

кучларining rivojlanish istiqbollari atroflicha tadqiq etilgan. Biroq hozirgi kunda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari¹⁰, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalarining iqtisodiy jihatlari, ba'zi o'rinlarda sohaning ayrim tarixiy xususiyatlari¹¹ kabi bir qator masalalar iqtisodchilarning asarlarida tadqiq etilgan, lekin bu ishlarda Namangan viloyati alohida mavzu sifatida chuqur tadqiq etilmagan.

Ikkinchi guruh xorijda nashr qilingan ishlarni o'z ichiga oladi. Xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari va uning iqtisodiy tabiati A.Smit, R.Kantilon, J.B.Sey, A.Xoskin, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters¹² va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Ushbu olimlar o'z asarlarida tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyatdagi mohiyati va rolini ilmiy-amaliy ta'rifini, tadbirkorlikning iqtisodiy, tashkiliy va psixologik tasniflarini yoritib bergan.

Tadbirkorlikning mohiyati, nazariy asoslari va uning mintaqaviy xususiyatlari bo'yicha rus olimlaridan A.G.Granberg, V.G.Gutman, I.A.Rodionova, A.V.Busigin, V.M.Vlasova, A.M.Samozkin, S.F.Borisov, V.V.Radaev, T.G.Kupriyanova¹³ va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olimlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati konsepsiyasi tarixiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi va ilk marta tadbirkorlik tarixining tarixiy tahlili berilgan, yangi tarixiy faktlar kiritilgan hamda xorijiy tadbirkorlik institutining ilgari o'rganilmagan rivojlanish davrlari yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlikning dinamikasiga ta'sir qiluvchi va qabul qilish jamiyatning intellektual salohiyatining muhim ko'rsatkichi ekanligini isbotlovchi innovatsion jarayonlarni tahlil qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi, qo'shma korxonalar, ularning mahsulot ishlab chiqarish va aholi bandligini ta'minlashdagi o'rnini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilandi:

¹⁰ Содиқов А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Тошкент: Иқтисод–молия, 2005. – 280 с.; Қаюмов А., Назарова Х., Эгамбердиев Ф.Т. Минтақавий иқтисод. – Тошкент: ЎзМУ, 2004. – 183 с.

¹¹ Ходжикулова С.Н. Халқаро молия институтлари томонидан кичик бизнес субъектларини кредитлашни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалс. доктори (Phd) дисс. автореферати. – Тошкент, 2020. – 52 б.

¹² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М., 1976. – 146 с.; Сей Ж.Б. Трактат политической экономии – Москва: Экономика, 1980. – 380 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – Москва, 1982. – 455 с.; Хоскин А. Курс предпринимательства.– Москва: Международные отношения, 1993. – 350 с.; Кантильон Р. Основы предпринимательской деятельности. – М., 1994. – 485 с.; Хизрич Р., Питерс Москва: Предпринимательство. Вып 1. –М., 1998. – 160 с.

¹³ Бусыгин А.В. Предпринимательство. – Москва, 1994. – 608 с.; Радаев В.В. Экономика переходного периода. – Москва, 1995. – 417 с.; Власова В.М. Основы предпринимательской деятельности. – Москва: Финансы и статистика, 1996. – 528 с.; Борисов Е.Ф. Экономическая теория. Курс лекций для студентов ВУЗов. – М., 1996. – 267 с.; Самозкин А.М. Теория и практика бизнеса. – Москва: РФА, 1997. – 313 с.; Гутман В.Г. Управление региональной экономикой. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 178 с.; Родионова И.А. Региональная экономика. – Москва: Экзамен, 2003. – 288 с.; Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. – Москва: ГУ.ВШЭ, 2004. – 491 с.; Куприянова Т.Г. Предпринимательство в книжном деле: историография, история, тенденции развития. – Москва: МГУП имени Ивана Федорова, 2012. – 367 с.

mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida davlat siyosatini ochib berish;

kichik biznes va tadbirkorlik sohasida ishlab chiqilgan huquqiy normativ hujjatlarning ahamiyatini yoritish;

tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida Namangan viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy xususiyatlarini tahlil qilish;

Namangan viloyatida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlanishi: yutuq va muammolarni tahlil qilib berish;

Namangan viloyatida tadbirkorlik sohasida xalqaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi jarayonini ochib berish;

aholini ish bilan ta‘minlash jarayonida tadbirkorlik tarmoqlarining o‘rnini yoritish;

Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini ochib berish;

Namangan viloyatida aholini ish bilan ta‘minlashda kichik biznes va tadbirkorlikni o‘rni hamda bu boradagi belgilangan chora-tadbirlar tarixini yoritish;

Tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi harakatlarni Namangan viloyati misolida tarixiy tahlil qilish belgilangan.

Tadqiqotning predmeti Namangan viloyatida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlari, aholini ish bilan ta‘minlash, qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik faoliyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil tamoyillaridan, fanlararo kompleks yondashuv, muammoviy-xronologik, og‘zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Namangan viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishiga hududda sovet davrida ko‘plab sanoat korxonalarining mavjudligi ta‘sir etgan bo‘lsa-da, mustaqillikning dastlabki yillari milliy iqtisodiyotining bir shakldan ikkinchisiga o‘tish jarayonining murakkabligi, inflyatsiya darajasi va moliyaviy barqarorlikning pasayishi, eksportdan valyuta tushumlarining qisqarishi, ish bilan band kishilarning daromadlari, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi sohasida o‘shish yo‘qligi kabi tanglik tadbirkorlikni rivojlanishiga to‘siq bo‘lganligi isbotlandi;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etilsa-da, iqtisodiy rivojlanish, eksport salohiyatini oshirishda paxta tolasi ustunlik qilganligi, qo‘shma korxonalarida aylanma mablag‘larning yetishmasligi, nizom jamg‘armasi to‘la shakllanmaganligi, bank kreditlaridan bo‘lgan qarzdorliklarni qaytarolmasligi hamda xorijiy investorlarning loyihalarni amalga oshirishdan voz kechish holatlari yillar davomida sodir bo‘lib, ushbu korxonalarni uzluksiz ishlashiga to‘siq bo‘lganligi dalillandi;

viloyatda aholi sonini ortib borishi, ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash va boshqa ehtiyojlarni yuqoriligi ortib borsa-da mustaqillik yillari

viloyatda eksport qilinayotgan tovarlar tarkibi, asosan, yengil sanoat hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat bo'lganligi ochib berildi;

Namangan viloyati hududiy joylashuviga ko'ra dehqonchilikni rivojlantirishda ustunlik qilganligi, mustaqillik yillari fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularda tadbirkorlikka keng yo'l ochishga e'tibor qaratilsa-da, viloyatda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib qolganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqillik yillarida Namangan viloyatida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi tarixiga oid arxiv materiallari, tarixiy manbalar, qonun hujjatlari, davriy nashrlar tahlili va bu borada erishilgan natijalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

arxiv hujjatlari, birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganish natijasida Namangan viloyatida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlanishida yutuq va muammolar, mintaqadagi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi;

60220300 – Tarix ta'lim yo'nalishi talablari uchun tavsiya etilgan O'zbekiston tarixi (O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi) o'quv qo'llanmasini yaratishda hamda O'zbekiston Milliy universitetida Oliy o'quv yurtlari Tarix fakulteti talabalari uchun O'zbekiston tarixi fanining o'quv dasturini ishlab chiqishda va tegishli o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot tarix fanida tan olingan usul va yondashuvlar qo'llanilgani, mavzuga doir manbalardan foydalanilgani, birlamchi manbalarga tayanilgani, xulosa, taklif va tafsialarni amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalar turli mutasaddi tshkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mutaqqillik yillari O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishi va uning oqibatlar tarixi mavzusini tarixiylik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilishi mazkur muammoga oid metodologik-uslubiy yondoshuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertasiyada keltirilgan ma'lumotlar va natijalardan O'zbekiston tarixining tegishli bo'limlarini yozishda, tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rnini tadqiq etishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlarini bajarilishiga qo'l keladi hamda yangi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Namangan viloyatida mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Namangan viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishiga hududda sovet davrida ko'plab sanoat korxonalarining mavjudligi ta'sir etgan bo'lsa-da, mustaqillikning dastlabki yillari milliy iqtisodiyotining bir shakldan ikkinchisiga o'tish jarayonining murakkabligi, inflyatsiya darajasi va moliyaviy barqarorlikning pasayishi, eksportdan valyuta tushumlarining qisqarishi, ish bilan band kishilarning daromadlari, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi sohasida o'sish yo'qligi kabi tanglik tadbirkorlikni rivojlanishiga to'siq bo'lganligi haqidagi natijalardan

Namangan viloyati hokimiyatining viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalarida", viloyat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda hamda viloyat tumanlaridagi tadbirkorlar bilan bo'lgan uchrashuvlarda foydalanilgan (Namangan viloyati hokimligining 2024-yil 22-avgustdagi 02/10-1909-son dalolatnomasi). Natijada, Namangan viloyati targ'ibot ishchi guruhining materiallarida mavjud bo'lgan korxonalar, uning respublika xalq xo'jaligidagi o'rni, qolaversa, tadbirkorlarda viloyatning hududiy imkoniyatlari va salohiyati tarixi, hozirgi holati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlariga xizmat qildi;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etilsa-da, iqtisodiy rivojlanish, eksport salohiyatini oshirishda paxta tolasi ustunlik qilganligi, qo'shma korxonalarida aylanma mablag'larning yetishmasligi, nizom jamg'armasi to'la shakllanmaganligi, bank kreditlaridan bo'lgan qarzdorliklarni qaytarolmasligi hamda xorijiy investorlarning loyihalarni amalga oshirishdan voz kechish holatlari yillar davomida sodir bo'lib, ushbu korxonalarni uzluksiz ishlashiga to'siq bo'lganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DM ning "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 14-avgustdagi 04-36-939-son ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar ko'rsatuvni mazmunan boyitishga va teletomoshabinlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka oid bilim va tasavvurlarini yanada boyitishiga xizmat qilgan;

viloyatda aholi sonini ortib borishi, ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va boshqa ehtiyojlarni yuqoriligi ortib borsa-da mustaqillik yillari viloyatda eksport qilinayotgan tovarlar tarkibi, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat bo'lganligiga oid materiallardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IV yo'nalishida belgilangan "Aholi o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish, yangilanish jarayonlari va tub islohotlarga daxldorlik hissini uyg'otish, tarixiy va muhim sanalarda ularni birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar" 23-bandi "Yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg'otish, Vatanni himoya qilishni eng sharaflı burch ekanligini keng targ'ib qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 19-maydagi 10/284-son dalolatnomasi). Taqdim etilgan materiallar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi targ'ibot guruhi ma'lumotlarining ilmiy jihatdan yanada boyitilishiga, yosh avlodda vatanparvarlik his-tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Namangan viloyati hududiy joylashuviga ko'ra dehqonchilikni rivojlantirishda ustunlik qilganligi, mustaqillik yillari fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularda tadbirkorlikka keng yo'l ochishga e'tibor qaratilsa-da, viloyatda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib qolganligi oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DMning

“O‘zbekiston yoshlari”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariyalarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 14-avgustdagi 04-36-939-son ma’lumotnomasi). Natijada, materiallar ko‘rsatuvlarni mazmunan boyitilishiga va teletomoshabinlarning bilim va tasavvurlarini yanada ortishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy konferensiyada, shu jumladan, 5 ta xalqaro konferensiya va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi “**Mustaqillik yillari O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hamda Namangan viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy hayot**” deb nomlanib, uning birinchi paragrafida “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida davlat siyosati” tahlil etiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan xususiylashtirish jarayonlari davomida davlat korxonalari asosan hissadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalar shakllandi¹⁴. Xususiy mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar 20 ta davlat dasturi¹⁵ bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi¹⁶. Qishloq xo‘jaligida ham chorva xo‘jaliklari davlat tasarrufidan chiqarildi¹⁷. Ammo, xususiylashtirilgan qoramolchilik fermalarida boqimandalik, yerlardan foydalanishda tashkilotchilik yetishmadi, yer ajratib

¹⁴ Беркинов Б., Галаева Н. Ўзбекистон Республикасида мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришни ривожлантириш жараёнларининг ҳозирги ҳолати ва йўналишлари. // Ўзбекистон иқтисодиёти. 2004. №6. – Б. 49.

¹⁵ Каримов И.А. Буёк келажакимизнинг ҳуқуқий кафолати. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 102.

¹⁶ Tadqiqotchi F.Tolipovning yozishicha bu bosqich ommaviy xususiylashtirish davri sifatida 1994–1995-yillardan (bazi manbalarda bu bosqich 1994-1996; 1994-1998, bazi manbalarda esa 1994–2014-yillarni o‘z ichiga oladi / Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning ривожланиш тарихи (1991 – 2021 йй). Тарих фан.докт. дисс. ... – Тошкент. 2022. – Б. 90.

¹⁷ O‘z MA. M.37-fond,1-ro‘yhat, 1023-yig‘majild, 2-varaq.

berish ko‘p xo‘jaliklarda qog‘ozda bajarildi, topshirilgan mahsulotlar uchun pulni o‘z vaqtida ololmaslik ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi¹⁸. Ferma azolari mol-mulk qiymatini to‘lamadilar, chorva mollariga ozuqa yetishtirish uchun me‘yordagi yer maydonlari berilmadi, hatto, yerlardan samarali foydalanilmadi. Natijada qoramollar soni 3 yil davomida 41 foizga sut, go‘sh t yetishtirish va sigirlar mahsuldorligi 50-53 foizga kamayib ketdi¹⁹.

1996–2000 yillar davomida mamlakat hayotida biroz barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari kuzatildi, xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatlari kengaydi. Dastlabki xususiy tijorat banklari va bankdan tashqari moliya institutlari (kredit uyushmalari) o‘z faoliyatlarini boshladi. Qishloq xo‘jaligida ham jamoa xo‘jaliklari, shirkat uyushmalari, xususiylashtirilgan va shaxsiy qoramolchilik fermalari, mustaqil dehqon (fermer) xo‘jaliklari, dehqon (fermer) xo‘jaliklari uyushmalari, ijara xo‘jaliklari uyushmalari, yopiq va ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, agrofirmalar va mashina traktor parklari ishlab turdi. 2000–2010 yillarda makroiqtisodiy jabha, tadbirkorlik sohasida iqtisodiyotni liberallashtirish tomon yo‘l tutildi²⁰. Biroq, “o‘sha kezlarda tadbirkorlar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlarni respublika miqyosida, barcha hududlarda birdek talab darajasida bo‘lmadi²¹. Kamchiliklar yutuqlar bilan bo‘lsa-da, hissadorlik jamiyatlari mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar hamda xususiy korxonalariga aylantirildi²². “Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat banki tomonidan kredit berish yo‘lga qo‘yildi²³. Investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlar tizimi yaratildi²⁴. 2009-2011 yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi²⁵. 2010-yildan boshlanib 2016-yil o‘rtalariga qadar kichik biznesning ulushi ko‘payib borishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sezilarli rol o‘ynadi. Biroq, muammolar, jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan kishilarda malaka va tajribaning yo‘qligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullangan kishilarda konyuktura o‘zgarishlariga moslasha olmasligi, raqobat qila oladiganlarni borligini inobatga olgan holda “biznes reja”lar ishlab chiqilmaganligi, kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanganlarga eksport salohiyatining kamligi, ishbilarmonlik muhitiga to‘siq bo‘lgan byurokratik g‘ov kabi to‘siqlar bor edi. 2017-yillardan boshlangan yangilanish davrida avvalo milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash hamda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va

¹⁸ O‘z MA. M.37-fond,1-ro‘yhat, 1023-yig‘majild, 2-varaq.

¹⁹ O‘z MA. M.37-fond,1-ro‘yhat, 2122-yig‘majild, 2-varaq.

²⁰ O‘z MA. M.37-fond,1-ro‘yhat, 6299-yig‘majild, 39-varaq.

²¹ Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning ривожланиш тарихи (1991 – 2021 йй). Тарих фан.докт. илм.дараж. олиш учун. Тақ.э.т.дисс. . – Тошкент. 2022. – Б. 108.

²² Беркинов Б., Галаева Н. Ўзбекистон Республикасида мулкни давлат тассаруфидан чиқариш ва хусусийлаштиришни ривожлантириш жараёнларининг ҳозирги ҳолати ва йўналишлари // Ўзбекистон иқтисодиёти. 2004. №6. – Б. 49.

²³ Узбекистан в цифрах 2012. Государственный Комитет Республики Узбекистан по статистике. – Ташкент. 2012. – С. 39.

²⁴ Убайдуллаева С.Ф. Ўзбекистонга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг сиёсий жиҳатлари. Сиёсий фан. номз. дис. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.11.

²⁵ Турдиев У., Карабаев Ф. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik – ижтимоий-иқтисодий таракқиётнинг асоси // Иқтисод ва молия. 2011. –№9 – Б. 39.

rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi²⁶. 2017-yilga kelib Namangan viloyati bo'yicha 16 924 ta kichik firmalar ro'yxatdan o'tdi²⁷.

Tadqiqot ishining ikkinchi paragrafi "Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida ishlab chiqilgan huquqiy-normativ hujjatlarning ahamiyati" deb nomlanib, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy – huquqiy shakllari o'rganildi²⁸. Bozor munosabatlariga o'tish davrida mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirishga oid qator qonun, farmon va qarorlar²⁹, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Bu hujjatlar o'z navbatida mustaqillik yillari qilingan tadqiqotlarda tahlil qilib berildi³⁰.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-dekabrda³¹gi qarori asosida Namangan viloyat hokimining 1997-yil 15-yanvar 18-son "Xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan viloyatda 1997-yilda iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirish, xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturi tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 29-iyul "1998-2000 yillar davrida Namangan viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 319-son Qarori asosida qishloq xo'jaligi korxonalarini shirkat xo'jaligiga aylantirishdan va bo'shab qolgan ichki kuchlarini ish bilan ta'minlash bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Natijada, 73 ta qishloq xo'jalik korxonalari shirkatga aylantirildi. Shirkat xo'jaligida ishlayotgan deyarli barcha xo'jaliklar 1999-yilni foyda bilan yakunladilar. Dasturda belgilangan Mingbuloq tumanining "Oltinko'l", "Chust" tumanining "Sherbuloq", "Chustnon" va "Karnon" xo'jaliklari iqtisodiy nochor va zarar ko'rib ishlayotgan istiqbolsiz xo'jaliklar deb topilib, ular o'rniga 129 ta dehqon hamda 43 ta fermer xo'jaliklari tashkil etildi, ularga 1372 gektar yer

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси давлат статистика тўплами. – Тошкент., 2017. – Б. 113.

²⁸ Dastlabki yillardagi "Mulchilik to'g'risida"gi, "Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Korxonalar to'g'risida"gi qonunlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga "Fermer ho'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligi kooperativi(shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonunlari asos bo'lib xizmat qildi. lex.uz – O'zbekiston qonunchiligi.(Murojaat qilingan sana: 03.06.2024).

²⁹ Хайдаров Ф. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида хорижий инвестицияларининг ўрни (Фарғона водийси вилоятлари мисолида, 1991-2020 йиллар). Тарих.фан. докт. Илм. дараж. Олиш учун ёз.дисс. – Тошкент. 2022. – Б. 260.

³⁰ Bularning batafsil tahliliga qarang. Балтабаева М.М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тadbirkorlikni ривожлантиришдаги иштироки (1991-2017 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2019. – 173 б.; Хайдаров Д. XX аср охири – XXI аср бошларида Ўзбекистонда саноат шаҳарларининг ривожланиш тарихи (Зарафшон иқтисодий райони мисолида). Тарих.фан.бўйича фалс.докт.(PhD) дисс. Автореф. – Самарқанд, 2021. – 52 б.; Марозиқов А. Фарғона вилоятида тadbirkorlikning шаклланиши ва ривожланиши (1991 -2020 йй). Тарих.фан.бўйича фалс.докт. (PhD) дисс. ... – Тошкент., 2021. –145 б.; Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning ривожланиш тарихи (1991-2021 йй). Тарих фан.докт. илм.дараж. олиш учун. Так.эт.дисс. ... – Тошкент., 2022. – Б. 236. ва б.

³¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 27 декабрь "Хусусийлаштириш ва тadbirkorlikni қўллаб-қувватлаш жараёнларини янада ривожлантириш тўғрисида" ги қарори. <https://lex.uz/docs/1641516>

maydoni ajratib berildi. U yerlarda 29298 ta dehqon va 947 ta fermer xo‘jaliklari tashkil etildi³².

2009-yil viloyat dasturi doirasida Namangan tumanida aholi iste‘moli uchun qadoqlangan o‘simlik yog‘i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Namangan tola tekstil” korxonasi, Namangan shahrida kalava ip ishlab chiqaruvchi “Namimpeks tekstil” korxonasi, avtomobillar uchun yuqori bosimli gaz balonlar ishlab chiqaruvchi “Maxsus Metall Sanoat”, turli-xil shurp ishlab chiqaruvchi “Mexmash”, tikuvchilikka moslashgan “Lyuks Plyus Servis” hamda momiq sochiq ishlab chiqaruvchi “Namangan Momiq Sochiqlari”, Norin tumanida velosiped ishlab chiqaruvchi “Norin mexanikal plent” kabi korxonalarining yirik loyihalari ishga tushirildi³³. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining bir qator topshiriqlari asosida Namangan viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha quvvatlarni kengaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash, saqlash bo‘yicha quvvatlarni kengaytirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, xorij investitsiyalarini jalb qilish, istiqbolli sanoat korxonalarini texnik jihatdan modernizatsiya qilish, yirik sanoat korxonalarida xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, dastur bo‘yicha yangi ish o‘rinlarini tashkil etish amalga oshirildi³⁴. Bular “KapTeks” mas‘uliyati cheklangan jamiyat, “Murodjon Yunusbek servis” xususiy korxonasi, “Namangan rezina plast” mas‘uliyati cheklangan jamiyat, “Zaminmetalsanoat” mas‘uliyati cheklangan jamiyat, “Vodiy yog‘och servis” xususiy korxonasi, “Uy mehnati” mas‘uliyati cheklangan jamiyat, “Muborak pyur silk” qo‘shma korxonasi, “Zamin Lyuks Tekstil” mas‘uliyati cheklangan jamiyatlardan iborat bo‘ldi. “Medera SBZ” xususiy korxonasi, “Gulshirin GBK” xususiy korxonasi, “Namangan Aziz non” mas‘uliyati cheklangan jamiyat, “Sharshara-A” xususiy korxonasi, “Uchqo‘rg‘on kristall” mas‘uliyati cheklangan jamiyat “Uchqo‘rg‘on yog‘” aksionerlik jamiyati, “Sattarova Maxliyo” xususiy korxonasi kabilarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarila boshladi. Biroq, dasturlar doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishda bir qator loyihalar ijrosi talab darajasida bo‘lmadi.

2009-yil 14-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2009-2012 yillarda Namangan viloyatida kichik biznes, tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 246-son qarori chiqdi. Mazkur qarorga asosan kasanachilik sohasida 2009-2012 yillarda 29735 ta ish o‘rinlari, ish joylarining 63,9 foizi (19 ming) qishloq joylarida yaratildi³⁵. 2011-yil 7-fevraldagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” davlat dasturi³⁶ doirasida Namangan shahri, Pop, Norin, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Chust va Chortoq tumanlardagi 829 ta bo‘sh turgan davlat obyektlarining 704 tadan 439 tasi yoki

³² Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yxat, 253- yig‘majild, 9-varaq.

³³ Namangan viloyati hokimligi joriy arxiv ma‘lumotlari.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-avgustdagi “2009–2012-yillarda Namangan viloyatida sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish Dasturi to‘g‘risida”gi 232-sonli qarori ijrosi bo‘yicha ma‘lumot // Namangan viloyati hokimligi joriy arxivi ma‘lumotlari.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-avgustdagi “2009–2012-yillarda Namangan viloyatida kichik biznes, tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 246-sonli qarorining 2009–2012-yillar yakuni bilan ijrosi to‘g‘risida // Namangan viloyati hokimiyati joriy arxivi materiallari.

³⁶ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 6-сон, 47-модда.

62,3 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berildi, 2433 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi³⁷. 2017-yildan mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tub islohotlar va yangilanish jarayoni boshlandi. Ayniqsa, hududiy tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirishga barcha ishlab chiqilgan va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar avvalambor, yangilangan O‘zbekistonda tadbirkorlik mamlakatda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini, daromadlarini, farovonligini ta‘minlash, mulkdorlar qatlamini shakllantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda katta rol o‘ynadi va yetakchi o‘rin egalladi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi “Tadbirkorlik faoliyatini shakllanishida Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari” deb nomlanib, avvalo Namangan viloyati respublika iqtisodiy makoni, uning qishloq xo‘jaligining rivojlanish imkoniyatlari yuqoriligi o‘rganildi. Namangan viloyati, dehqonchilik (paxta, pilla, meva, uzum yetishtirish), ko‘proq paxta yetishtirishga hamda yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan hudud bo‘lib, mustaqillik arafasida Namangan viloyatida respublika aholisining 7,6 foizi istiqomat qildi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida 1992-yil aprelda Namangan viloyati hokimining “Namangan viloyatida istiqomat qiluvchi fuqarolari 1992-yil uchun tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat berish haqida”gi qarori chiqdi. Unda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarga tadbirkorlikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullanishi belgilanib³⁸, 1992-yilning o‘zida viloyat bo‘yicha 1143 ta shirkat va kichik korxonalar faoliyat ko‘rsatdi³⁹. Shu bilan savdo, maishiy xizmat, mahalliy sanoat, kichik hamda kam quvvatli korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib xususiylashtirildi. 1997-yil hisobiga esa Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 94,8 foizi nodavlat sektoriga, jumladan, aksionerlik jamiyatlarida 84,72 foizi, 3,7 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu yil qo‘shma korxonalar hajmi 2,97 foizni tashkil qildi⁴⁰.

Yangi islohotlar davrida Namangan viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha respublikaning eng ilg‘or viloyatlaridan biri sifatidagi o‘rnini mustahkam saqlab qoldi. Viloyatda katta zamonaviy sanoat va kuchli tadbirkorlar shakllanib, Namangan, tadbirkorlar yurti, kichik va o‘rta biznes markaziga aylandi⁴¹. Bu yillarda Namangan viloyati hududidagi yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari va farmaseftika yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan korxonalarda yuqori o‘sish sur‘atlari kuzatildi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi **“Mustaqillik yillari Namangan viloyatida tadbirkorlikning shakllanish va rivojlanish jarayonlari va xalqaro hamkorlikning amalga oshirilishi”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafida

³⁷ Namangan viloyati hokimligi joriy arxivi materiallari.

³⁸ Namangan viloyati davlat arxivi. 912-fond, 1-ro‘yhat, 20-yig‘majild, 23-varaq.

³⁹ Namangan viloyati davlat arxivi. 912-fond, 1-ro‘yhat, 6-yig‘majild, 2-varaq.

⁴⁰ Хайдаров З. Наманган вилояти: ўтмиши ва бугунги куни. (1917-2013). - Наманган: Наманган нашриёти, 2014. – Б. 12.

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Наманганда тadbirkorlar bilan очик мулоқот ўтказди // Халқ сўзи, 2023 йил 3 февраль.

“Namangan viloyatida tadbirkorlikni rivojlanishi: yutuqlar va muammolar” o‘rganildi.

Namangan viloyatida xalq xo‘jaligini rivojlantirish, aholini turmushini yaxshilash borasida bir qator Kompleks dasturlar asosida 1991-yilda Yangiqo‘rg‘on to‘qima materiallari fabrikasi, Namangan g‘isht kombinati, bir qator g‘isht zavodlari, shuningdek, Popda yirik rezina-texnika zavodi ishlab turdi⁴². 1993-yil viloyatdagi 125 ta sanoat korxonasi 31 tasi nodavlat shaklida ish boshladi. Ularning 1 tasi xususiy, 2 tasi ijara, 5 tasi jamoa, 23 tasi hissadorlik tipida bo‘lsa, 1994-yil 68 ta davlat tasarrufidan chiqqan sanoat korxonasi 3 tasi xususiy, 2 tasi ijara, 8 tasi jamoa va 58 tasi hissadorlik korxonalaridan iborat edi⁴³. 1993-yilda sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 71,3 foizini yengil sanoat mahsulotlari, 11,6 foizini oziq-ovqat sanoati mahsulotlari bo‘ldi⁴⁴. Viloyatda tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishga ko‘maklashadigan institutsional tashkilotlardan biri viloyat palatasi hisoblandi. Palata respublika savdo-sanoat palatasining Namangan shahar va tumanlaridagi filiali shahar va tumanlardagi milliy iqtisodiyotning barcha sohasidagi (hunarmandchilik, mahsulot ishlab chiqarish, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar) ishbilarmon va tadbirkorlarni uyushtirib, ularga tadbiriy, huquqiy konsalting xizmati ko‘rsatdi. Viloyat savdo-sanoat Palatasi har yili ilg‘or tadbirkorlarni aniqlash va ularni rag‘batlantirish maqsadida ko‘rgazmalar uyushtirdi. Savdo-sanoat palatasi qoshidagi axborot konsalting markazi, “Madad” sug‘urta agentligi, bir necha sohalarga ixtisoslashgan brokerlik idoralari xizmat qildi. 1995-yilda 11 ta shaxobcha davlat tasarrufidan chiqarilib, 382 ta kichik va xususiy korxonalar tashkil etildi. Yil davomida ikki marotaba “kim oshdi” savdosi o‘tkazilib, 0,04 sotixdan 46 ta yer maydoni, 2 ta avtotransport, 9 ta savdo, maishiy xizmat obyektlari sotildi⁴⁵. Biroq, Kosonsoy va Pop tumanlarida do‘konlarni xususiylashtirishdagi palapartishliklar tufayli turli idoralarga arz qilish holatlari ortib ketdi. Agar viloyat 1995-yil 1-yanvargacha 30 ta korxonalar xususiylashtirilgan bo‘lsa, ularning 10 tasi faoliyat ko‘rsatdi. Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida birorta korxonalar yoki qo‘shma korxonalar ochilmadi. Mingbuloq, Kosonsoy tumanlarida bo‘lsa Italiya bilan tashkil etilgan qo‘shma korxonalar xomashyo yo‘qligi sababli ishlamadi. Pop, To‘raqo‘rg‘on tumanlaridagi korxonalar ham ana shunday xavf ostida turdi⁴⁶. 1995-yil yakuniga ko‘ra, o‘shir sur‘atlarini pasaytirib yuborgan korxonalar soni 21 tadan 14 taga tushdi.

Viloyatda aholi turmush tarziga mos ravishda shu vaqtgacha bo‘lgan yakka tartibdagi mehnat qiluvchilar soni oshib bordi. Korxonalar to‘xtab, ish o‘rnilari yo‘qolgan vaqtda yakka tartibda mehnat qiluvchilar o‘z iqtisodiy ahvolini o‘nglash, o‘zini-o‘zi band qilish bilan shug‘ullandilar. 2005-yilga kelib kichik tadbirkorlik subyektlari Namangan shahrida 3766 tani ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa,

⁴² Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий–иқтисодий ривожланиш жараёнлари. – Наманган: Наманган нашриёти, 2000. – Б. 33.

⁴³ Куймуротов А. Саноат тармоқлари ривожланишининг айрим муаммолари // Жамият тараққиёти ва ижтимоий фанлар мавзuidaги илмий анжуман материаллари. – Наманган, 1996. – Б. 39.

⁴⁴ Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995. – Б. 66.

⁴⁵ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 147-yig‘majild, 4-varaq.

⁴⁶ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 145-yig‘majild, 3-4 varaq.

ularning 2011 tasi yoki 54,3 foizi, To‘rao‘rg‘on tumanida ro‘yxatdan o‘tgan 1008 taning 839 tasi yoki 83,2 foizi, Chortoq tumanida ro‘yxatdan o‘tgan 1168 ta subyektlarning 826 tasi yoki 70,7 foizi, Namangan tumanida ro‘yxatdan o‘tgan 1357 ta korxonaning 1012 tasi yoki 74,6 foizi, Kosonsoy tumanida 1246 taning 870 tasi yoki 69,8 foizi faoliyat ko‘rsatdi⁴⁷. Ayni paytda ro‘yxatdan o‘tib, kelajakda tadbirkorlikni davom ettira olmagan oilaviy kichik bizneslar ham bo‘ldi. Masalan, 2007-yilda ro‘yxatga olingan 58 ming oilaviy kichik biznesdan 22 mingtasi tugatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2013–2015-yillarda hududlar sanoat salohiyatini oshirish dasturi doirasida viloyatda charm mahsulotlari, zamonaviy ko‘rinishdagi erkaklar kostyum shimlari, plastmassa buyumlari, santexnika jihozlari, avtomobil faralari, qog‘oz, gugurt, paypoq, quritilgan sut, pishloq, qadoqlangan tabiiy sharbatlar, sariyog‘, kungaboqar, elektrod, shifer, akkumulyator, erkaklar uchun galstuk, ayollar ro‘mollari, ayollar poyabzali, erkaklar remenlari, bolalar poyabzali, tugma, ayollar va erkaklar sumkalari, bolalar o‘yinchoqlari, dori vositalari, dori vositalari uchun tibbiyot qopqoqlar, shurp xamda po‘lat qoplamali poliuritanli sendvich panel mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi⁴⁸. Biroq, Namangan viloyatida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va uni rivojlanishida bir qancha muammolar ham vujudga keldi.

Namangan viloyatini “2013–2015-yillarda sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi” doirasida 2015-yilda umumiy qiymati 226 mlrd.so‘mlik 314 ta loyihalarni amalga oshirish va natijada 8695 ta yangi ish o‘rinlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Xullas, 2015-yilga kelib viloyatda 3200 dan ziyod faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 2,7 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, biroq, mavjud imkoniyatlar va zaxiralar to‘la safarbar etilmadi. Masalan, 2015-yilga kelib “Namangan to‘qimachi” mas’uliyati cheklangan jamiyatda 990,9 mln so‘mga, ya’ni korxonada yanvar-mart oylari davomida elektr energiya ta’minotida keskin uzilishlar bo‘lganligi sababli bu davrda korxonaning faoliyati vaqtincha to‘xtatildi va 2015-yilga belgilangan reja to‘liq bajarilmadi. Shunday bo‘lsa-da, Namangan viloyatida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va uni rivojlanishida xususiylashtirish jarayonlari, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish borasidagi olib borilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “Namangan viloyatida tadbirkorlik sohasida xalqaro hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi” deb nomlandi. Namangan viloyati aholi zich joylashgan viloyatlardan biri hisoblandi. Vodiy viloyatlari iqtisodiyotiga olib kirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni miqdorini ko‘paytirish va eksport ko‘rsatkichlarini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining har bir yil yakunlariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishlarida muntazam ravishda muhokama qilinib borildi⁴⁹. Namangan viloyatidagi investitsiyalash va moliyalash jarayoni 1993-yil Namangan hududida 25 dan ziyod qo‘shma korxonalar va 20 ta tashqi iqtisodiy aloqa

⁴⁷ Namangan viloyati davlat arxivi 948-fond, 1-ro‘yhat, 506-yig‘majild, 68-varaq.

⁴⁸ Respublika hududlarida 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilish materiallari strukturasi // Namangan viloyati hokimiyati joriy arxivi materiallari.

⁴⁹ Ўзбекистонда хорижий инвестициялар (1998 йил шарҳи, 1999 йил тамойиллари) // Bozor, pul va kredit. 1999. № 10. – Б. 38.

qatnashchisi bo'lgan yirik korxonalar faoliyat yuritdi. Viloyat AQSh, Angliya, Kanada, Yaponiya, Italiya, Turkiya kabi jami 14 ta yuksak rivojlangan jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatdi⁵⁰. 1991–1994-yillarda Namangan viloyatida jami 19 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1995–1998-yillarda yana 21 ta qo'shma korxonalar ishga tushirildi. Ulardan biri “Zarkent”, “Yantar” O'zbek–Rossiya qo'shma korxonasi hisoblanadi⁵¹. 21 ta tuzilgan qo'shma korxonadan bundan 9 tasi turli sohalarda faoliyat ko'rsatdi, 12 tasi xalq iste'mol mollarini ishlab chiqardi. 1995-yildan O'zbekiston-Turkiya hamkorligidagi ip-gazlama mahsulotlari ishlab chiqaradigan “Asnam Tekstil” korxonasi 1996-yildan ish boshladi, shu yildan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullandi⁵². 1994-yilda “O'zbek-Turk”, “Kosonsoy Tekshin” qo'shma korxonasi jurni qayta ishlab, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun 71 mln. AQSh dollari jalb etilib, uning 40 mln. xorijiy investitsiyaga to'g'ri keldi⁵³. Shuningdek, pillani qayta ishlash jarayonida chiqqan chiqindilardan ip-gazlama mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan O'zbekiston-Yaponiya hamkorligidagi “Silk Road” qo'shma korxonasi 1998-yildan boshlab mahsulot ishlab chiqarib, mahsulotlarni eksport qilishga ham erishdi⁵⁴.

Xorijiy investitsiyalar hisobiga viloyatda O'zbekiston-Rossiya hamkorligidagi savdo va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan “SIB-NAM” qo'shma korxonasi, rezina poyabzallar ishlab chiqarishga mo'ljallangan “NAM TOM” qo'shma korxonasi, ulgurji savdoga qiladigan “Mosnom”, savdo-sotiqqa mo'ljallangan “Yantar” qo'shma korxonasi, o'rtachilik xizmati qiladigan “Al-Vaxidu” qo'shma korxonasi ishlab turdi. O'zbekiston-Gruziya hamkorligidagi ulgurji savdo qiladigan “Gigant Limitet” qo'shma korxonasi, O'zbekiston-Germaniya hamkorligidagi qurilish materiallari ishlab chiqarishga mo'ljallangan “Albo” qo'shma korxonasi, O'zbekiston-Shveysariya hamkorligidagi sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan “Nestle O'zbekiston” qo'shma korxonasi ishlab turdi.

O'zbekiston-Qozog'iston hamkorligidagi polietilen materiallari ishlab chiqaradigan “Raffag” qo'shma korxonasi, O'zbekiston-Polsha hamkorligidagi parfyumeriya ishlab chiqarishga mo'ljallangan “Natal O'zbekiston” qo'shma korxonasi ishlab turdi⁵⁵. O'zbekiston-Chexiya hamkorligidagi qadoqlash idishlari ishlab chiqaradigan “Kronas” qo'shma korxonasi, O'zbekiston-Qirg'iziston hamkorligida ulgurji savdo qiladigan “Toshko'mir” qo'shma korxonasi, o'rtachilik xizmatlarini bajaruvchi “Aziya Ugol Servis” qo'shma korxonasi ishlab turdi. O'zbekiston-Amerika hamkorligidagi salqin ichimliklar ishlab chiqarishga mo'ljallangan “Koka-Kola” qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi. O'zbekiston-Angliya hamkorligidagi mineral suv ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Aksept” qo'shma korxonasi, velosiped ishlab chiqarishga mo'ljallangan “Namangan

⁵⁰ Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий–иқтисодий ривожланиш жараёнлари. – Наманган: Наманган нашриёти, 2000. – Б. 127

⁵¹ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

⁵² АСНАМ–ТЕКСТИЛ иш бошлади // Наманган ҳақиқати, 1993 йил 22 ноябрь.

⁵³ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro'yhat, 91-yig'majild, 3-varaq.

⁵⁴ Namangan viloyati davlat arxivi. 948-fond, 1-ro'yhat, 287-yig'majild, 8-varaq.

⁵⁵ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Velosiped zavodi”, O‘zbekiston-Kanada hamkorligidagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan “Luna-Invest” qo‘shma korxonasi, O‘zbekiston-Xitoy hamkorligidagi fotokino mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Sentr Svetnogo Foto Drujba” qo‘shma korxonasi kabilar ishlab turdi⁵⁶. 1997-yil 1-yanvar holatiga Namangan viloyatida 79 ta qo‘shma korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, shundan 38 tasi faoliyat ko‘rsatmadi⁵⁷.

1998-yilda Pop tumanida yiliga 4380 tonna kalava ip ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan “Popfen” qo‘shma korxonasi, Namangan shahrining Nurobod dahasida Xitoy xalq respublikasining “XUAVEY” kompaniyasi bilan “Kosonsoy Tekmen” qo‘shma hissadorlik korxonasi kabi inshootlar qurib bitkazildi⁵⁸. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturining ishlab chiqilishi va uning amalga oshirilishining ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliyotga joriy qilinishi bilan 2005-yilga kelib Namangan viloyati mamlakat iqtisodiy salohiyatida yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. Namangan viloyati xorijiy mamlakatlarga paxta tolasi va pilla chiqardi. Sobiq ittifoqdosh respublikalar, ayniqsa, Rossiya, Ukraina va Belorussiyaga paxta tolasi, quruq va ho‘l mevalar, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetkazib berdi⁵⁹. 2014-yilga kelib viloyatda qo‘shma korxonalarida aylanma mablag‘larning yetishmasligi, bank kreditlaridan bo‘lgan qarzdorliklarni qaytarolmasligi hamda xorijiy investorlarning loyihalarni amalga oshirishdan voz kechishi sababli viloyatda 7 ta qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmadi. Bu kamchiliklar tufayli korxonalar ba‘zilari faoliyatini to‘xtatib, ba‘zilari ish faoliyatini boshlash jarayonlari bo‘lib turdi. 2015-yilga kelib Namangan viloyatida xorijiy investorlar ishtirokida 60 ga yaqin korxonalar faoliyat olib bordi⁶⁰. Korxonalar tomonidan Turkiya, Bolgariya, Janubiy Koreya, Xitoy davlatlariga eksport amallari bajarildi⁶¹. Eksport geografiyasi tahlil qilinganda 2009–2014-yillarda viloyatdagi eksportyor korxonalar jahonning 84 ta davlatlarida tovar va xizmatlar eksportini amalga oshirdi. 2017–2019-yillarda Namangan viloyatida yana 16 ta qo‘shma korxonalar ishga tushirildi va viloyati iqtisodiyotini o‘rishiga bo‘lgan harakatlar davomida investitsiyalarning o‘rni katta bo‘ldi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Namangan viloyatida tadbirkorlikni rivojlanishi orqali aholini ish bilan ta‘minlash hamda qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyati”** deb nomlanib, uning birinchi “Aholini ish bilan ta‘minlash jarayonida tadbirkorlik tarmoqlarining o‘rni” nomli paragrafida aholi bandligini ta‘minlashdagi tadbirlar ochib berildi. Namangan viloyatida mustaqillikning dastlabki yillarda viloyat hududlarida korxonalar, tashkilot va muassasalarni bozor iqtisodiyotiga moslash tadbirlari amalga oshirildi. Masalan, aholini band qilish 1993-yilda 1991-yilga nisbatan 3173 kishiga ko‘paydi⁶². Kadrlar tayyorlash

⁵⁶ Namangan viloyati davlat arxivi. 948-fond, 1-ro‘yhat, 287-yig‘majild, 62-84 varaqlar.

⁵⁷ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 165-yig‘majild, 3-varaq.

⁵⁸ Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий–иқтисодий ривожланиш жараёнлари. – Наманган: Наманган нашриёти, 2000. – Б. 126.

⁵⁹ Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. – Ташкент: Iqtisod–moliya, 2008. – С. 63.

⁶⁰ O‘z MA. M.20-fond, 1-ro‘yhat, 11-yig‘majild, 7-varaq.

⁶¹ Дадабоев О. Экспорт салоҳияти ортмоқда.// Наманган ҳақиқати, 2016 йил 27 февраль. – № 17. – Б. 1.

⁶² Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 342-yig‘majild, 2-varaq.

bo'yicha esa birgina 1993-yilda bitiruvchi kadrlar soni 30,7 ming kishini, shundan 6,3 ming kishi malakali ishchilar bo'ldi. 2 ming oliy va 6,1 ming kishi o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan yoshlar bo'ldi. Bundan tashqari boshqa shahar oliy o'quv yurtlarida va texnikumlarda o'qib bitiruvchilar 1,5-2 ming nafarni tashkil etdi⁶³. Ayni paytda mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash maqsadida yangi ish o'rinlari yaratayotgan tadbirkorlik subyektlari ni rag'batlantirish, soliq, kredit imtiyozlarini berish; mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish; kasanachilik, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal sur'atlarda rivojlantirish amaliyoti qo'llanildi⁶⁴. Masalan, Namangan viloyatida 1996-yilda ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlarining qariyb 25 foiz, 2015-yilda esa 2 mingdan ortig'i tashkil qildi. 2000-yilga kelib viloyat bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining YaIM hajmidagi ulushi 33,4 foizni, aholi bandligini ta'minlashda 49 foizni tashkil etdi⁶⁵.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2005-yilgacha bo'lgan davrda Namangan viloyatida hammasi bo'lib qo'shimcha tarzda 185 mingga yaqin ish o'rinlari tashkil etildi⁶⁶. 2006-yilga kelib, Namangan viloyati bo'yicha doimiy aholi yashash soni 2134,5 ming kishi tashkil qilgan bo'lsa, shulardan 1173 ming kishi mehnat resursini tashkil qildi. Shu yili viloyatda 23114 ta kichik korxonalarda 716 ming kishi faoliyat olib bordi. 2007-yilga kelib jami viloyat bo'yicha 24833 ta kichik korxonalarda 784,7 ming kishi mehnat faoliyatini olib bordi⁶⁷. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida Namangan viloyatida 2013-yilda bitiruvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi tasarrufidagi ta'lim muassasalari qoshida kichik korxonalar va o'quvchilarga qo'shimcha kasb berish bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shaxobchalari faoliyatini rivojlantirish hamda yoshlarni jalb qilish maqsadida ishlab chiqarishning 10 xil sohasi bo'yicha jami 67 ta kichik korxonalar, 19 yo'nalish bo'yicha 762 ta o'quvchilarga qo'shimcha kasb berish uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil etilib, bu yerda bitiruvchilarga qiziqqan sohalari bo'yicha aniq tasavvur va ko'nikma hosil qilishlari uchun zamin yaratildi. Buning uchun avvalo kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi va keyinchalik ishga joylashtirish maqsadida bitiruvchilarning 40447 nafari (99 foiz) 14 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar bilan 3 tomonlama shartnomalar imzolandi. Uch tomonlama shartnomalarning 23143 nafari 54,2 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha tuzildi. Ayni paytda 2010-yilda Mahalliyashtirish dasturi doirasida Namangan viloyatida 69,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, 322 ta yangi ish o'rinlari yaratildi⁶⁸. Shu jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasida 17152 ta,

⁶³ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro'yxat, 342-yig'majild, 5-varaq.

⁶⁴ Ниязов М. Ўзбекистонда аҳоли бандлигини таъминлашда тadbirkorlik фаолиятининг ўрни ва ривожланиши // Экономика и финансы. - Тошкент, 2015. - №3. - Б. 83.

⁶⁵ Нурматов А.Н. Ўзбекистон аҳолиси моддий таъминотининг тарихий таҳлили (Фарғона водийси мисолида, 1985–2020 йй.). Тар. Фан. бўйича фалс. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 17.

⁶⁶ Каримов И.А. Халқ ишончи – олий масъулият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 127.

⁶⁷ Статистический ежегодник регионов Узбекистана. – Ташкент, 2008. – С. 150.

⁶⁸ Namangan viloyatining 2010-yil ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi haqida ma'lumot // Namangan viloyati hokimiyati joriy arxivi materiallari.

kichik sanoat korxonalarida 2941 ta, qurilishda, uy-joylarni ta'mirlash 2750 ta, yakka tartibdagi tadbirkorlikda 9467 ta ish o'rinlari tashkil etildi⁶⁹.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi "Namangan viloyatida qishloq xo'jalik sohasida tadbirkorlik faoliyati" deb nomlanadi. Namangan viloyati aholisi zich joylashgan hududlar qatoriga kiradi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida Namangan viloyati qishloq xo'jaligida raqobat muhitini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga o'sgan holda⁷⁰, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlar ham nodavlat mulk shakliga o'tdi⁷¹. 1995-yilga kelib viloyatda 1882 ta dehqon (fermer) xo'jaliklari tashkil etilgan bo'lsa, ularning 1170 tasi, ya'ni 62 foizi dehqonchilik, shundan 275 tasi yoki 15 foizi bog'dorchilik, uzumchilikka ixtisoslashdi⁷². Shunday bo'lsa-da, 1996-yilda viloyatda don, paxta, meva, uzum, paxta ishlab chiqarish, go'sht va sut tayyorlash topshiriqlari bajarilmadi. Yem-xashak yetkazishda muammolar kelib chiqa boshladi⁷³. Natijada, chorvachilik sohasida olib borilgan ishlarning qoniqarsizligi oqibatida chorva bosh sonlari kamayib, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish o'ta achinarli holatga kelib qoldi⁷⁴.

Namangan viloyati hokimi B.Rapig'aliyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi raisi I.Jo'rabekovga 1995-yilda jo'natgan maktubida ham "aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish bilan bir qatorda chorvachilikni yanada rivojlantirish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirilsa-da, bir qator muammolar vujudga kelmoqda", deb yozadi. Unda ta'kidlanishicha, 1991-yil ittifoq tugashi munosabati bilan viloyatning uzoq yillar davomida foydalanib kelgan Qirg'iziston Respublikasi o'ziga qarashli 300 ming gektardan ortiq yaylovni o'z xo'jaliklarida foydalanish uchun olib qo'ygan. Ikki respublika viloyat rahbarlari o'rtasida muzokaralar olib borilishiga qaramay ijobiy natija bermagan. Oqibatda, viloyat xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'ra boshlaganlar. Viloyatda aholini o'ta zichligi, yerlarning asosiy qismlari o'zlashtirilib, sug'oriladigan yerga aylantirilgani oqibatida, mayda shoxli mollarni yaylovda boqish imkoniyati o'ta qiyinlashdi.

Namangan viloyati Pop tumanining yer maydon esa viloyat yer maydonining 39 foizini tashkil qilgan, 100 ming gektardan ortiq maydon tog'lik o'tloqlardan iborat bo'lgan, uning deyarli yarmisida Farg'ona viloyatining Qo'qon zonasidagi 7 ta tuman xo'jaliklari 100 ming bosh mayda shoxli mollarni boqib kelganlar. Kamiga chorva mollarni yaylovga olib borib, o'tlatib, yana qaytish Pop tumani xo'jaliklariga moddiy zarar keltirgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib viloyat xokimi Farg'ona viloyati foydalanayotgan 48 ming ga. yaylovni Namangan viloyati xo'jaliklari foydalanishiga qaytarib berishda amaliy yordam berishni so'ragan⁷⁵.

⁶⁹ "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturining ijrosi yuzasidan Namangan viloyatida 2011-yil yakuni bilan bajarilishi to'g'risida // Namangan viloyati hokimiyati joriy arxivi materiallari.

⁷⁰ Астанов Қ.К. Малый и средний бизнес в Узбекистане: современное состояние, проблемы и перспективы. // Экономическое обозрение. – Ташкент. 2000. – №3. – С. 19.

⁷¹ Статистик тўплам. – Тошкент, 2005. – Б.11.

⁷² Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro'yhat, 15-yig'majild, 45-varaq.

⁷³ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro'yhat, 169-yig'majild, 2-varaq.

⁷⁴ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro'yhat, 240-yig'majild, 21-varaq.

⁷⁵ O'z MA. M. 37-fond, 1-ro'yhat, 283-yig'majild, 11-varaq.

Mingbuloq tumanida ham aholi soni ko‘payib borishi hisobiga aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda qiyinchiliklar kelib chiqa boshladi. Lekin, aholining shaxsiy tomorqalarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmi dastlabki yillardan keskin oshdi⁷⁶.

“1998–2000-yillar mobaynida Namangan viloyatida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish” uchun kredit resurslari, shu jumladan, mikrokreditlarni viloyat vakilligiga ajratilishi rejalashtirilishi natijasida dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi “Dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi”dan 70 mln. so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Kredit olishga ehtiyoji bo‘lgan fermer xo‘jaliklariga 49 mln. so‘m imtiyozli kredit ishlash va sotish bo‘yicha yangi korxonalar ochish hisobiga 14 mln. so‘m kredit sarflandi. To‘raqo‘rg‘on tumani vakilligiga a‘zo bo‘lgan “Shams Agro” meva-sabzavotni qayta ishlovchi korxonalar, tumanning “Oltin vodiya” jamoa xo‘jaligi hududida yiliga 300 ming dona meva sabzavotlarini konservatsiyalash liniyasini ishga tushirdi. Yangi liniya ishga tushishi hisobiga 37 ta ishchi o‘rin yaratildi⁷⁷.

Tadqiq etilayotgan yillar respublikada fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Negaki, fermer xo‘jaliklari o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari va xo‘jalik yuritish tamoyillari bo‘yicha bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq mos keldi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasida va uning Namangan viloyatida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida qaraldi. Biroq, Namangan, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida fermerlarga kam hosilli yerlar berilganligi sababli ular bilan tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolaverdi va o‘z faoliyatlarini to‘xtatganlari ham bo‘ldi⁷⁸.

Namangan viloyat hokimining “2012–2015-yillarda respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish va rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori⁷⁹ asosida viloyatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, viloyatda go‘sht, sut, meva va sabzavotlarni qayta ishlash uchun turli texnologiyalardan foydalaniladigan korxonalar tashkil etish hamda mavjud korxonalarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi. 2015-yil viloyatda yetishtirilayotgan paxta va boshhoqli donning asosiy qismi viloyatning o‘zida qayta ishlandi, xususan, 2015-yilda paxtaning 100 foizi, boshhoqli donning 70 foizi qayta ishlashga yo‘naltirildi. E‘tiborga molik tomoni shu bo‘ldiki, 2015-yil yakuni bilan kichik biznesning qishloq xo‘jaligidagi ulushi 99,2 foizni tashkil etdi⁸⁰. Biroq, bu yerda ham muammolar bo‘lib, Kosonsoy tumanidagi “Guzar maskan parrandasi” fermer xo‘jaligida 40 ming bosh parrandani parvarishlash uchun Ukraina davlatidan olib kelinadigan zamonaviy asbob-uskunalariga 525 mln.so‘m mablag‘ni 260 ming AQSh dollari qiymatida, Kosonsoy tumanidagi “Ququmboy Naslchilik Parranda” mas‘uliyati cheklangan jamiyatda 175 ming

⁷⁶ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 91-yig‘majild, 10-varaq.

⁷⁷ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 233-yig‘majild, 12-varaq.

⁷⁸ Namangan viloyati davlat arxivi. 911-fond, 1-ro‘yhat, 240-yig‘majild, 23-varaq.

⁷⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2012-2015 йилларда республика озиқ-овқат саноатини бошқаришни ташкил этишни янада такомиллаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/2272548>

⁸⁰ Namangan viloyati hokimligi joriy arxivi ma‘lumotlari.

bosh parrandani parvarishlash uchun Germaniya va Xitoy davlatlaridan olib kelinadigan zamonaviy asbob-uskunalarga 2,2 mlrd so‘m mablag‘ni 613,2 ming AQSh dollari va 391 ming EVRO qiymatida konvertatsiya qilish ishlarini kechikkanligi sababli loyihalarni amalga oshirish ishlari yakunlanmadi. Shuningdek, naslli qoramollarni parvarishlash bo‘yicha Uychi tumanidagi “Abbos ota” fermer xo‘jaligiga 420 mln.so‘m, “Ilxomjon Ikromjon” fermer xo‘jaligiga 210 mln. so‘m va Uchqo‘rg‘on tumanidagi “Shodlik” fermer xo‘jaligiga 1 mlrd. so‘m kredit mablag‘larni olish uchun TIF Milliy bankga kredit hujjatlarini taqdim etilgan bo‘lsa-da, kredit ajratish masalasi hal etilmaganligi sababli loyihalar foydalanishga topshirilmadi⁸¹.

Shu yillarda ham dehqon xo‘jaliklari mamlakat iqtisodiy qudratining oshishiga hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shish bilan birga, qishloq joylarda yashayotgan aholining daromad manbai vazifasini ham o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning zamonaviy tuzilmalarini shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Asosiysi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, bandlikni ta‘minlash, o‘z mehnati bilan daromad topish istagida bo‘lgan fuqarolarga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida “Har bir oila – tadbirkor” dasturi izchil davom ettirilgani muhim o‘zgarishlardan biri ekanligini ham tasdiqladi.

XULOSA

Tadqiqotda mustaqillik yillarida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi, tashkiliy asoslari va rivojlanish jarayonlari tarixiy manbalar, rasmiy hujjatlar, statistika ma‘lumotlari hamda davriy matbuot materiallari asosida har tomonlama o‘rganildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni xususan, bozor munosabatlarini mustahkamlash hamda har tomonlama rivojlantirib borish jarayonini tezlashtiruvchi eng asosiy omillardan biri bu tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Jumladan, mustaqillik yillarida tadbirkorlikni rivojlantirishga, uning davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish, uni rag‘batlantirishga katta e‘tibor berilganligi hamda bu borada bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligi ham tasdiqlab turibdi.

2. Iqtisodiyot nodavlat sektorining shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta‘siri ahamiyatli ekanligi va bu boradagi islohotlarning aniq maqsadlarga yo‘naltirilganligi, ularning asoslanganligi hamda davom etishini ta‘minlash maqsadida mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, xususiylashtirishni amalga oshirilganligi ma‘lum bo‘ldi. Buning uchun ishlab chiqilgan dasturlar esa hukumat darajasida ishlab chiqilganligi hamda bu sohalar va tarmoqlarda bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi aniqlandi.

⁸¹ Namangan viloyatida 2012-yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan iqtisodiy islohotlarni borishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotnoma // Namangan viloyati hokimiyati joriy arxivi materiallari.

3. Namangan viloyati o'zining ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa bir qator jihatlariga ko'ra qo'shni mintaqalardan o'ziga xos tarzda farq qilishi, ular viloyatda amalga oshirilgan islohotlarning yo'nalishlari va vazifalarini belgilashda o'z ta'sirini o'tkazishi kuzatiladi. Bu avvalo viloyatning sovet hokimiyati yillaridan qolgan sanoat salohiyatida o'zgarishlar yuz berganligi, bunga respublika rahbariyatining mintaqalar rivojidadagi mutanosiblikni shakllantirishga qaratilgan siyosati ta'sir etganligi bilan bog'liqdir. Bu ayni vaqtda viloyatning ishlab chiqarish salohiyati katta zaxiraga egaligi va bu sohada xalqning tadbirkorlik an'anasi mavjudligiga tayangan holda zamonaviy, innovatsion sanoat mahsulotlarini yetishtirish mumkinligidan dalolat beradi.

4. Davlat siyosati avvalo xususiylashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish hama mamlakat xalq xo'jaligida qaror toptirishga qaratilgan islohotlar bir necha bosqichda amalga oshirildi. Mulkning turli shakllarining rivojlanishi kichik va o'rta biznesning taraqqiy etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berganligi, oqibatida esa Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 90 foizdan ortig'i nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin.

5. Viloyatda mashinasozlik, elektrotexnika, farmatseftika kabi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi va buning natijasida mustaqillik yillarida viloyatda faqatgina paxtani qayta ishlashga "moslashgan" sanoat tizimiga barham berildi. Viloyatdagi yirik va o'rta qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan eksportbop mahsulotlar ma'danli suv, bolalar ozuqasi, sut va sut mahsulotlari, tabiiy sharbat, konserva, quritilgan meva va sabzavotlar, nooziq-ovqat mahsulotlaridan paxta, ipak hamda jundan yigirilgan ip, paxta tolasi, qog'oz mahsulotlari, nasos agregatlaridan iborat ekanligi aniqlandi.

6. Agrar sohadagi olib borilgan tadbirlar va bosqichlar, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha davlat strategiyasidan biroz farq qildi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyoti, jumladan, viloyat xalq xo'jaligida xususiy mulkni, xususan kichik biznesni qaror topishi bilan bog'liq bir qator muammolarga duch kelindi. Jumladan, fermerlarga kam hosilli yerlar berilganligi sababli ular bilan tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolishi va buning natijasida o'z faoliyatini to'xtatish xolatlari aniqlandi. O'zboshimchalik bilan yerlarni egallab olish xolatlari kuzatildi. Shuningdek, konvertatsiya qilish ishlarini kechikkanligi, kredit ajratish masalasi o'z vaqtida hal etilmaganligi holatlarini ham ko'plab ucharatish mumkin.

7. Iqtisodiy islohotlar davrida bandlik masalasini to'g'ri hal qilish uchun yangi ish o'rinlari yaratayotgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish, ularga soliq va kredit imtiyozlarini berish, mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatbardoshligini oshirish, kasanachilik, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal sur'atlarda rivojlantirish siyosati yuritildi. Kasanachilik asosida ish o'rinlari barpo etilib, bular, asosan, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq, tikuvchilik, do'ppichilik, qandolatchilik, parrandachilik, chorvachilik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo'nalishlaridan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi.

8. Namangan viloyatda xorijiy sarmoya asosida sanoatni yanada rivojlantirish, tadbirkorlikka keng yo'l berish maqsadida bir qator qo'shma korxonalar tuzildi. Bu

viloyat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash uchun sharoit yaratdi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik sohasida qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'siqlar vujudga keldi. Bu esa viloyatning tayyor mahsulot ishlab chiqarishda va ularni eksport qilishda qator muammolar keltirib chiqarishi kuzatildi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida yuzaga kelgan fikr-mulohazalar quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Namangan viloyatida aholining o'sish sur'atlari bilan yangi ish o'rinlarini yaratilishi o'rtasidagi muvofiqlikni tartibga solish va saqlash, tovar ishlab chiqarish oldidagi mavjud to'siqlarni tugatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish kerak.

2. Mintaqaning qulay iqlim sharoitlari va aholisining an'anaviy dehqonchilik madaniyatini puxta egallaganligidan kelib chiqib, viloyatda eksport salohiyatini yuksaltirishda keng imkoniyatlarni yaratish zarur.

3. Kasanachilikning barcha turlarini, mehnat shartnomalari orqali korxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan, unga ayollar va oilaning band bo'lmagan boshqa a'zolarini jalb etib, uyda bajarish mumkin bo'lgan ishlarning turli ko'rinishlarini rivojlantirish orqali "korxonalar – mahalla" iqtisodiy hamkorlik tizimini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xususan, imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish, horijlik ishlab chiqaruvchi subyektlar bilan tajriba almashish, sohadagi muammolarni birgalikda hal qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/2025.27.12.Tar.10.01 ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАБИБИЛЛАЕВ БАХОДИР АСАТИЛЛА УГЛИ

**МАЛЫЙ БИЗНЕС И ЧАСТНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В
НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ
(1991–2016 годы.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Ветеранской аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.2.PhD/Га11447.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский) (<http://www.ziyounet.uz>) размещен на веб-странице Научного совета (www.fan.uz) и Информационно-справочном портале «ZiyouNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:	Идиусола Хурридан Эришбаева доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хошимов Сабжиол Абдурашидович доктор исторических наук, профессор Мирзахолов Сардор Жамолдодиевич доктор философии по историческим наукам
Ведущая организация:	Ташкентский государственный университет экономики

Защита диссертация состоялась 11.02.2026 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025 27 12 Га11041 при Ферганском государственном университете (Адрес: г. Фергана, ул. Мураббийлар, Исторический факультет Ферганского государственного университета, 2 этаж, зал заседаний. Тел: (99873) 244-44-92, факс: (99873) 244-44-93, электронная почта: fgu_info@fan.uz, Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрировано под № 696) Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, д. 19, здание АРМ. Тел: (99873) 244-44-94.

Автореферат диссертации размещен 11.02.2026 г.
(реестр протокола рассылки № 4 от 11.02.2026 г.)




Г.А. Усманов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.и.н.,
профессор


А.Г. Муратов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.и.н.


М.И. Абдуллаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях происходящих в мире процессов глобализации развитие сферы малого бизнеса и частного предпринимательства, а также совершенствование механизмов управления этой деятельностью остаются одной из приоритетных задач. Именно малый бизнес и предпринимательство благодаря своей мобильности, привлечению небольших объемов капитальных средств, возможности более легкой и быстрой модернизации производства, а также обновлению ассортимента выпускаемой продукции за короткий период времени и предоставлению её потребителям становятся всё более необходимыми. В связи с этим изучение проблем сферы малого бизнеса и частного предпринимательства, их системное решение и дальнейшее расширение возможностей приобретают всё большую актуальность.

Во многих ведущих высших учебных заведениях и научно-исследовательских институтах мира проводятся глубокие исследования, посвящённые развитию малого бизнеса и частного предпринимательства, обеспечению их экономической безопасности и другим смежным вопросам. В частности, в США Гарвардский университет с “Harvard Center for Entrepreneurship and Innovation” и Стэнфордский университет с “Stanford Graduate School of Business”, в Великобритании Кембриджский университет с “Centre for Entrepreneurial Learning”, а также Национальный университет Сингапура с “NUS Enterprise” занимаются изучением вопросов, связанных с цифровой экономикой, стартап-экосистемой и развитием малого бизнеса. Кроме того, Российская академия наук и Корейский институт развития женщин также являются ведущими учреждениями в исследовании проблем малого бизнеса и частного предпринимательства. В настоящее время интенсивное развитие и совершенствование бизнеса и предпринимательства признаются во многих странах одним из приоритетных направлений государственной политики, что вызывает необходимость всестороннего изучения данной сферы. Поэтому в условиях международной конкуренции и процессов трансформации особое значение приобретает более глубокое исследование научных знаний, связанных с защитой и поддержкой субъектов предпринимательства, их изучение в историческом, региональном и проблемном аспектах.

В годы независимости в Узбекистане были приняты законы, направленные на стимулирование развития малого бизнеса и частного предпринимательства, совершенствуется действующий нормативно-правовой механизм. Особенно в настоящее время в нашей стране реализуются конкретные адресные меры, направленные на надёжную защиту прав и законных интересов субъектов предпринимательства, обеспечение законного и фактического приоритета частной собственности, а также постепенное сокращение доли государства в экономике. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: “Наша главная задача – обеспечить создание наиболее благоприятных условий для стимулирования

развития предпринимательства. Каждый человек, занимающийся бизнесом, должен быть глубоко уверен в поддержке со стороны государства. Люди должны быть заинтересованы в занятии бизнесом. Если предприниматели и народ будут богаты, то и страна будет богатой”¹. Именно поэтому всестороннее изучение данной сферы приобретает особую актуальность.

Указ Президента Республики Узбекистан от 27 июля 2018 года № ПФ–5490 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы защиты прав и законных интересов субъектов предпринимательства”, Указ от 28 января 2022 года № ПФ–60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, Постановление от 7 июня 2018 года № ПҚ–3777 “О реализации программы “Каждая семья — предприниматель”, Постановление от 7 марта 2019 года № ПҚ–4231 “О дополнительных мерах по широкому привлечению населения к предпринимательской деятельности и развитию семейного предпринимательства”, а также другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу, служат правовой основой для реализации поставленных задач. В процессе их практического внедрения данное исследование в определённой степени способствует достижению намеченных целей.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике Узбекистан. Данное диссертационное исследование осуществлено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан — “Формирование системы инновационных идей и путей их реализации для социального, правового, экономического, культурного, духовного и образовательного развития информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Анализ литературы, отражающей исследования в данном направлении, с точки зрения историографии целесообразно разделить на две основные группы: труды, созданные в Узбекистане в годы независимости и работы зарубежных авторов.

Литературу первой группы, в свою очередь, можно классифицировать на несколько подгрупп. В изучаемые годы исследованием темы занимались не только историки², но также экономисты³ и философы⁴, внесшие значительный вклад в научное осмысление проблематики.

¹ Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.15.

² Турсунов Ж.Н. История экономического и социального развития городов Узбекистана (на примере городов Байсун, Шаргун, Шурчи). 1971-1990. Автореф.дисс.кан.ист.наук. – Ташкент, 1995. – 52 с.; Ўзбекистон тарихи. Р.Х.Муртазаева масъул муҳаррирлигида / Олий ўқув юртлари номутахассислик йўналиши талабалари учун дарслик. – Тошкент, 2003. – 674 б.; Хайдаров Д.О. Ўзбекистонда ресурс шахарларининг шаклланиш тарихидан // “Имом Бухорий сабоқлари” журнали. – Самарқанд, 2016. – №4. – Б. 52-54; Рахимов М.А., Рахматуллаев Ш.М., Турсунова Р.Ю., Назаров Р.Р. Очерки новейшей истории Узбекистана. 2-е издание (исправленное и дополненное). – Ташкент, 2016. – 376 с.; Хайдаров Д.О. Янги иқтисодий инфратузилмаларнинг ташкил топиши. Ўзбекистонда замонавий шахар маданияти (1991–2016 йиллар). – Тошкент: Янги нашр, 2017. – 184 б.; Рахматуллаев Ш. Фарғона водийси шахарларида иқтисодий трансформация жараёнлари (1991-1996 йиллар). – Тошкент, 2017. – 196 б.; Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланиш тарихининг айрим жиҳатлари хусусида // “Ўтмишга назар. – Тошкент, 2019. – №12. – Б. 74-90; Балтабаева М.М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2017 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 201. – 56 б.; Обломуродов Н, Толипов Ф. Ўзбекистон

